

G'AFUR PO'LATOV "HERIRUD FARYODI" ROMANIDA OBRAZLAR TIZIMINING BADIY TALQINI

Sharipov Dilshodbek Shodmonjon o'gli
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
dilshodbeksharipov93@gmail.com
[+998934954345](tel:+998934954345)

Annotatsiya. Maqolada G'afur Po'latovning "Herirud faryodi" romanidagi obrazlar tizimi adabiyotshunoslik nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Inson va tabiat, vijdon va mas'uliyat, tarix va xotira kabi badiiy muammolar romanning markaziy mazmunini tashkil etadi. Asarda muallif obrazi, Herirud daryosining ramziy talqini, harbiy muhitdagi personajlar, ayollar obrazi hamda millatlararo timsollar poetik asosda yoritilgan. Baxtin, Vinogradov, Lotman hamda D. Quronovning obrazga doir qarashlari romandagi estetik strukturalarni tushuntirishga ilmiy zamin yaratadi. Tadqiqot asarda markaziy va ikkilamchi obrazlar o'rtasidagi ma'naviy-axloqiy qarama-qarshiliklarni ochib beradi.

Kalit so'zlar. Herirud faryodi, obrazlar tizimi, ramz, muallif obrazi, ayol obrazi, harbiy personajlar, adabiyotshunoslik nazariyasi, badiiy makon.

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE SYSTEM OF IMAGES IN G'AFUR PO'LATOV'S NOVEL "THE WAIL OF HERIRUD"

Sharipov Dilshodbek
PhD Researcher Namangan State University
dilshodbeksharipov93@gmail.com
[+998934954345](tel:+998934954345)

Annotation. This article analyzes the system of literary images in G'afur Po'latov's novel "The wail of Herirud" based on major theoretical approaches in literary studies. The novel addresses essential themes such as the relationship between humanity and nature, conscience and responsibility, history and memory. The author's self-reflective image, the symbolic meaning of the Herirud River, military characters, female portrayals, and interethnic identities form the core aesthetic structure of the work. The views of Bakhtin, Vinogradov, Lotman, and Dilmurod Kuronov provide a theoretical framework for interpreting the novel's artistic world. The research highlights the moral and ideological contrasts embodied in both primary and secondary characters.

Keywords. *Wail of Herirud, system of images, symbolism, author's image, female characters, military characters, literary theory, artistic space.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВ В РОМАНЕ ГАФУРА ПОЛАТОВА “СТОН ГЕРИРУДА”

Шарипов Дилшодбек
Докторант базовой докторантуры
Наманганский государственный университет
dilshodbeksharipov93@gmail.com
[+998934954345](tel:+998934954345)

Аннотация. *В статье проводится анализ системы образов в романе Гафур Полатова “Стон Герируда» на основе ключевых теоретических подходов литературоведения. В центре внимания — темы взаимоотношения человека и природы, совести и ответственности, истории и памяти. В работе раскрываются авторский образ, символика реки Герируда, военные персонажи, женские образы и межнациональные типажи. Концепции М. Бахтина, В. Виноградова, Ю. Лотмана и Д. Куронова создают научную основу для понимания эстетической структуры романа. Исследование выявляет нравственно-идеологические контрасты между центральными и второстепенными персонажами произведения.*

Ключевые слова. *“Стон Герируда”, система образов, символ, образ автора, женские образы, военные персонажи, литературная теория, художественное пространство.*

Kirish

Jahon adabiyoti hamda o'zbek adabiyotida inson va tabiat, vijdon va mas'uliyat, tarix va xotira, urush va tinchlik kabi g'oyalar ko'p asarlarda badiiy ifodasini topgan. G'afur Po'latovning “Herirud faryodi” romani ana shu muammolarni chuqur falsafiy va estetik yondashuvda ko'rsatgan asarlardan biridir. Asarda muallif insonning ma'naviy iztirobi, jamiyatdagi befarqlik, tabiatning nidosi va insoniyatning vijdon oldidagi javobgarligini obrazlar tizimi orqali yoritadi.

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotshunoslikda obraz tushunchasi asarning estetik asosini tashkil etadi. M. Baxtin fikricha, “badiiy obraz – ijodkor ongining ichki muloqoti orqali tug'ilgan estetik shakldir” [1], V. Vinogradov esa obrazni “muallifning hayotni badiiy idrok etish shakli” deb ta'riflaydi[2]. Dilmurod Quronov: “adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning

umumiy kategoriyasi. Lugʻaviy maʼnosida har qanday aksni bildiruvchi «obraz»soʻzi turli fan sohalarida (falsafa, psixologiya) muayyan terminologik maʼnoda qoʻllanadi” deya izohlaydi[3]. Shu nazariy qarashlar “Herirud faryodi” romanidagi obrazlar tizimini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqod metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi Gʻafur Poʻlatovning “Herirud faryodi” romanidagi obrazlar tizimini chuqur va koʻp qatlamli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilishga qaratilgan. Avvalo, asarni badiiy tuzilma sifatida oʻrganish maqsadida struktur-semiotik yondashuv qoʻllanildi. Romandagi ramzlar — Herirud daryosi, Paropa, vodiy manzaralari, urush maydoni va geografik obrazlar — semantik yuklamasi, ularning estetik hamda ideologik funksiyalari oʻrganildi. Bu yondashuv roman mazmunidagi ramziy qatlamning ichki mantiqiy tizimini ochishga yordam berdi.

Shuningdek, roman qahramonlarining xarakter yaratish mexanizmi, ularning ismi yoki laqablarining semantik vazifasi, tashqi portret va ichki psixologik holatlar orqali yuzaga keladigan badiiy obrazlar tizimi ilmiy asosda yoritildi.

Natijalar va ularning tahlili

Markaziy obraz – bu muallifning oʻzi. Romanning markazida muallif obrazi turadi. U zamon muammolari bilan yashayotgan, ichki iztiroblarga toʻla shaxsdir. Muallif tabiatga, insoniylikka va adolatga befarq jamiyatda oʻzining halolligini saqlashga urinadi. Uning “faryodi” — bu shunchaki ogʻriq emas, balki vijdonning ovozi. Muallif oʻz obrazi orqali insonning maʼnaviy inqirozini va ruhiy uygʻonish zaruratini koʻrsatadi.

Muallif obrazini Dostoevskiy qahramonlari ruhiga yaqin deb baholash mumkin: u ham oʻzini ayblaydi, oʻz ruhining chuqur qatlamlarida javob izlaydi. Bu jihat M. Baxtinning “polifonik roman” nazariyasiga uygʻun — romanda Muallif ovozi bosh qahramon ovozi yangligʻ yangraydi. [4]

Asardagi eng yirik ramziy obrazlardan biri bu Herirud daryosidir. U roman gʻoyaviy markazining poetik metaforasidir. Daryo faryodi — bu insoniyatning, tabiatning, yerning nidosi. U tabiat va inson taqdiri bir-biridan ajralmasligini

eslatadi. Daryo suvining kamayishi, hayot manbaining soʻlishi – bu jamiyatdagi maʼnaviy qurish ramzidir. Afgʻoniston diyorida, aynan, daryo boʻylarida sodir boʻlayotgan xunrezliklardan Herirud faryod chekadi.

Bundan tashqari muallif asar davomida nafaqat daryoga, balki togʻ hamda vodiylarga ham obrazlarga murojaat qilganday murojaat qiladi. Masalan, kitobning bir bobi ham “Nega xoʻmrayasan, Paropamiz” deb nomlangan.

Bu yondashuv Y. Lotmanning “badiiy makon” nazariyasiga mos keladi: “Sanʼatdagi makon – bu voqelikning maʼnaviy modeli” [5]. Demak, Herirud daryosi — tashqi tabiat emas, balki insoniyat ruhiyatining badiiy timsolidir.

Ikkinchi darajali obrazlar tizimi bular – muallif atrofidagi obrazlar uning gʻoyaviy va maʼnaviy qarama-qarshiliklarini yorituvchi tomonlardir. Rasmiy doira vakillari, ayrim epizodik obrazlar, beparvo kishilar jamiyatdagi axloqiy tanazzulni ifodalaydi. Doʻst va hamkasblar esa insoniy qadriyatlar, halollik va masʼuliyatni himoya qiluvchi pozitsiyani tutadi.

Bu kontrastlar orqali yozuvchi jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va vijdotsizlik muammosini ochadi. V. Vinogradov badiiy tilning “ijtimoiy shakllar orqali xarakter hosil qilish qudrati”[6]ni taʼkidlagan edi – Gʻafur Poʻlatov asarida aynan shu til vositasi obrazlarning gʻoyaviy mohiyatini belgilaydi.

Asarda undan tashqari yuzga yaqin obrazlar ishtirok etgan boʻlib, ular asarda bevosita yoki bilvosita qatnashadilar. Bevosita ishtirok etganlar urush qatnashchilari hamda mahalliy aholi vakillari boʻlib, askarlar xayoli hamda xotirasida personajlar esa asarda bilvosita ishtirok etadilar.

Muallif asar qahramonlarining nomlashi ham alohida mavzu. Urush yoki askarlik qonun-qoidalarimi, negadir muallif asar qahramonlarini laqablari bilan kifoyalanadi. Masalan, “Moʻgʻulbashara”, “Kirchi”, “Laylak”, “Kalyan”, “Chumar”, “Qoshiq” va boshqalarga xarbiy xizmat davomidagi laqablarini berish bilan kifoyalanadi.

Asar personajlarini mudhish voqea, yaʼni, urush bir yerga yigʻgani bois ular turli millat hamda elat vakillari, shuning uchun ham ularning ayrimlarini millati yoniga yigiti yoki askari degan nomni qoʻyadi muallif: Moldovan, Tojik yigit,

Qozoq askari va xokazo. Bundan tashqari turli millat vakillarining ismlari esa ular mansub bo'lgan millat ifodasi o'laroq asarda yana ayrim bir hislatlarni ham ifoda etadi. Masalan, Safarbek, Yura, Taras, Dodo, Umrzoq, Grusha, Husayn, Elbay, Berdimurod, Xonibey, Georgiy va xokazo.

Yozuvchi asar qahramonlarini o'quvchi yodiga muxrlash uchun ikki xil yo'ldan foydalanadi. Birinchisi tasvirlanayotgan personajning tashqi qiyofasi gavda, xarakteri : “Adham – qoramag‘iz, yuzida kulgichi bor”, “ Husayn – Xudo gavda berib aql bermagan”, “Yusuf – sil yuzli, uzun bo‘yli yigit”. *“Uzun bo‘yli, qalin qosh va mo‘ylabli, ozg‘inligidan ustidagi kiyimi qopdek shalvirab turadigan vzvodimiz komandiri – “Laylak” laqabli kapitan paydo bo‘ldi”*[7] ” Ikkinchisi personajning biror bir qilgan yaxshi yoki yomon qilmishi orqali o'quvchiga tanishtiradi: *“Serjantlardan biri uni payqab, yugurib keldi-da, ura ketdi. Shunada kutilmagan voqea – xo‘rozlik qilayotgan serjant Polvon zarbasidan quladi, yordamga oshiqqan serjantlardan boshqasi ham yer tishlagach, tulki Nase qaygadir bir zumda g‘oyib bo‘ldi”* [7] Nase hamda Filye – Ashxabod o‘quv qismida barcha yangi kelganlarni qiynab, ko‘ngillari tusagan ishni qildirishdi, alaloqibat o‘zlari ham shu kunni boshdan kechirishdi.

Yozuvchi yon atrofida gilarining taqdiriga achinishi barobarida ayrimlaridan nafratlanadi. Personajlarni shu holga slogan askarlik tuzumi hamda urushdan jirkanadi. Ko‘z oldida vafot etayotgan safdoshlariga ichi achiydi. Taqdiri ayanchli yakunlangan sheriklarini o‘zlari aytgan gaplari, yokida o‘zi bildirgan tilaklari bilan kuyunib xotirlaydi:

“Kabina eshigini ochib, joni arshi-a’loga ravona bo‘lgan mallasoch haydovchi Vatikoni tanidim. Uning boshi sog‘ qolgan, lekin ko‘kragi o‘qdan titilgan, hayotga to‘ymagan ko‘zlari yumilmay qotib qolgandi. “Suv keltirgan aziz” deb noto‘g‘ri donolik qilibman, bu joylarda suv keltirgan ham aziz emas”. [7]

Asarning bir necha qismlarida ishtirok etgan “BTR” haydovchisi Moldavanning aytgan gaplari hamda tilaklari o‘ziga esh bo‘lmaganiga achinadi qahramon: *“Qarang, mening “BTR”im baxtli, tosh ham tegmaydi, deb maqtanib*

yurar edi. Eh gumroh, bu yerda baxtli odamning o‘zi yo‘q. hatto omadli texnikaning ham. Peshonang sho‘r ekan, afsus. Aravangni baxti qayda qoldi Moldovan?!” [7]

Muallif roman sujetida xotiralar hamda xayolda qolgan personajlarni ham kiritadi. Lekin ular asarda ma’lum bir yukni tashishsa-da, ularga ism qo‘ymaydi, yaqindan tanishtirmaydi. Kimningdir yaqin qarindoshi, bolalikdagi muhabbati, ota yoki onasi sifatida tasvirlaydi. Bosh obrazning ham otasi, onasi, yaqin qarindoshlari nomma-nom sanab o‘tilmaydi. Shunchaki otam, onam, amakim deya sujet chizig‘ini davom ettiradi muallif.

Romandagi obrazlar qatori ayollar obrazi bu alohida bobni tashkil etadi. Asardagi ayol obrazlari — mehr, sadoqat, sabr va ruhiy barqarorlik timsoli. Ular jamiyatdagi beqarorlik fonida ma’naviy tayanch sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda bir necha ayollar obrazi mavjud bo‘lib, ular romanda alohida o‘rin hamda yo‘nalish chizig‘iga ega. Bosh qahramonimizning onasi, buvisi, Oftobxon, Moldovan juvon, Kseniya, Olenka, Katya, Nadejda Sergeyevna. Bulardan Moldovan juvon, Ksenya asarda ishtirok etmagan bo‘lsada, ularning portretini asar qahramonlarining so‘zi orqali tasvirlaydi. Muallifning onasi, buvisi xolasi – Oftobxon, Olenka, Nadejna Sergeyevna orqali yozuvchi sof hamda samimiy tuyg‘ularga boy ayollar obrazini tasvirlaydi. G‘amxo‘r ona, mehribon buvi, xazilkash xola, yosh hamda go‘zal Olennka ko‘z oldimizda gavdalanadi.

“Ko‘z oldimga onamning chexrasini gavdalantiraman. Charos ko‘zlari-yu oq qirmizi yuzlari, yelkasiga maydalab o‘rilgan qaldirg‘och qanoti rangli uzun sochlari otamni shunchalik maftun etgan ekan-ki...” [7] Tog‘ri asardagi ayol personajlar orasida qabih ishlari bilan kitobxon yodida qoluvchilar ham bor, lekin guruch kurmaksiz bo‘lmaydi.

Xulosa

G‘afur Po‘latovning “Herirud faryodi” romani o‘zbek adabiyotida insonning ruhiy iztirobi, jamiyatdagi befarqlik, urushning mudhish oqibatlar va tabiat bilan uyg‘un hayot masalalarini badiiy jihatlar bilan ochib bergan asarlardandir. Romandagi obrazlar tizimi nafaqat voqealar ketma-ketligining ko‘zgusi, balki

muallifning hayotga, jamiyatga va inson tabiatiga bergan falsafiy bahosining badiiy shaklidir. Markaziy obraz bo'lmish muallif o'zining ichki "faryodi" orqali o'quvchini ruhiy hushyorlikka undaydi. Herirud daryosining ramziy talqini esa tabiatning insoniyatdan adolat va mas'uliyat kutayotgan nigohini ifodalaydi. Ikkilamchi obrazlar — askarlar, mahalliy aholi, epizodik timsollar va ayollar portretlari — romanning ma'naviy qatlamini boyitib, vijdon, halollik va insoniylik haqidagi umumiy fikrni mustahkamlaydi. Natijada asar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, chuqur estetik va ijtimoiy mazmun kasb etgan badiiy-mantiqiy manzara sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. М., «Худож. лит.», 1975
2. В. В. Виноградов. О языке художественной литературы. М.: Гослитиздат, 1959.
3. Куронов Д., Адабиётшунослик лугати - Тошкент: Akademnashr, 2013.
4. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Сов. Россия, 1979.
5. Лотман, Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970.
6. Виноградов, В. В. О языке художественной литературы. — М.: Гослитиздат, 1959
7. Po'latov, G. (2022). Herirud Faryodi. Toshkent: Qamar media.